

## XOLIS QALAMIGA MANSUB QISSALAR

*Kentayeva Gulmira Ismadiyarovna*

*Tashkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xolisning she'riy qissalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Manba yangiligi bilan ahamiyatlidir. Maqolada Xolis qissalarining ahamiyati va boshqa ijodkorlar asaridagi qissalar bilan o'xshashliklari keltiriladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Turkiy adabiyot, she'riy qissachilik, "Ravzat ush shuhado", "Imomlar qissasi", "Shoh Jarir qissasi", islom tarixi, turkiy xalqlar, axloqiy didaktik.

**Аннотация:** В данной статье анализируется повести Холиса. Источник отличается своей новизной. В статье исследуется значимость повести и их сходство с повестями произведений других авторов.

**Опорные слова и выражения:** тюркская литература, стихотворное повествование, "Равзат уш шухадо", повести имамы, повесть Шах Жарира, история ислама, тюркский народ, воспитательно-дидактический.

**Summary:** At the end this article contains information about Xolis's verse stories. The source is significant for its novelty. The article delves into the importance of impartial verse stories and similarities with the verse stories in the work of other creators.

**Keywords and expressions:** Turkic literature, verse story, "Ravzat ush shuhado", stories of Imams, the story of "Shakh Jarir", history of Islam, the Turkish people, ethycal-didactic.

<sup>1</sup>Turkiy adabiyotda she'riy qissalar ikki yo'nalishda qo'llanilgan. Biror muallif tomonidan yozilib, qahramonning hayoti va sarguzashtlari hikoya qiluvchi rivoyaviy asar sifatida. Ikkinchisi xalq qissalari bo'lib, ular og'zaki ijro qilingan. Keyinchalik adabiy qayta ishlanib, xalq kitoblari sifatida yozma shaklda dunyo yuzini ko'rgan. <sup>2</sup>Xolis qalamiga mansub qissalardan biri „Imomlar qissasidir“. U ham o'z davrida xalq orasida juda keng tarqalgan bo'lib bu syujet asosida qator asarlar yaratilgan. Uvaysiy qalamiga mansub „Dostoni shahzoda Xasan“, „Dostoni shahzoda Xusayn“ asarlari shunday asarlar jumlasidandir. Qissaning ko'plab nusxalarda ko'chirilganligi o'sha davrda bunday asarlarga qiziqishning kuchli bo'lganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari ushbu qissalarning ba'zi nusxalarida fors-tojik tilida ham bunday asar

<sup>1</sup> Eshmuhammedova M., Devoni hikmat qo'lyozmalari, T., ToshTDSHI, 2003.

<sup>2</sup> Abdullayev O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob.-T.: O'qituvchi. 1994. -383 b.

mavjudligi va ko'pligiga ishoralar bor. <sup>3</sup>Xusayn Voiz Koshifiyning „Ravzat ush shuhado“ asari bilan qiyoslanganda, ular orasida ba'zi mushtarakliklar bor. Xususan, syujet yo'nalishi va ko'pgina voqealar tasviridagi tartib juda o'xshash. Masalan „Ravzat ush shuhado“ da avval Muhammad payg'ambar, so'ng Fotima, Ali, Xasan haqidagi voqealar bayon qilinadi. „Imomlar qissasi“ da ham shunday faqat payg'ambardan so'ng Abubakr, Umar, Usmon faoliyatlari va vafotlari ham tilga olingan. Koshifiy asarning Karbalodagi urush, Xusayn va oilasining halokati qismlari Muhammad Fuzuliy tomonidan ozarbayjon tiliga ham ijobiy tarjima qilingan. Shuningdek, Sayqaliy qalamiga mansub "Vafotnomai payg'ambar" nomli o'zbekcha she'riy qissa varianti ham bor. Bu nusxalar bir biridan ko'chirilmagan bo'lishi mumkin, ammo syujeti yuzaga keltiruvchi voqealarning birligi o'z o'zidan asarlar o'rtasida o'xshashlik paydo qilgan.

Xolisning „Imomlar qissasi“ da avvalo Muhammad alayhis salom vafotiga to'xtab o'tiladi. Payg'ambarning faoliyati bir qadar yodga olinib uning vafotiga bag'ishlangan marsiya ham keltiriladi. Shuningdek sahobalar Abu Bakr Umar va Usmon hayoti va faoliyati hamda qazosi tog'risida qisqacha bayon qilinib, marsiyalar bilan taziya izhor qilinadi. Payg'ambar alayhis salomning qizi Fotima haqida ham ba'zi ma'lumotlar berilib, so'ng asosiy voqea bayoni boshlandi. Qissai Hazrat Ali va o'gillari Xasan va Xusaynlar hamda Xusaynning avlodlari to'g'risida o'ziga xos tarix desak xato qilmaymiz. Izzat Sulton aytganidek qissalar asosida ko'pincha bo'lib o'tgan yoki bo'lib o'tkani tahmin etiluvchi voqealar turgan. Badiiylik talablari asosida ba'zi voqea va obrazlar shubhali tuyulsa ham, yani to'qimallika yaqin bo'lsa ham asardagi ko'pchilik voqea hodisalarning o'rni qarama qarshi tomonlardan turib kurash olib borgan qahramonlar nomi aynan tilga olinishi qissani tarixiy voqelikka yanada yaqinlashtiradi. Qissada alizodalarning ummaviylar tomonidan qirg'in qilinishi ancha batafsil yoritilib shu davrdagi kurashlar o'ziga xos bir badiiy uslubda bayon qilinadi.

<sup>4</sup>Xolis tarixiy mavzuda asar yozishni davom ettirib xalifa Usmon davrida shuhrat qozongan sarkarda Jarir ibn Muhammad to'g'risida ham bir doston yaratgan. Shoh Jarir tog'risida Xolis yashagan davrda bir qator rivoyatlar mavjud bo'lgan. Shuningdek o'sha davrda yaratilgan tarix kitoblarida Farg'ona xalqini musulmon qilish uchun bu yerga kelgan sarkardalardan biri sifatida uning nomi tilga olingan. Jumladan Ibratning Farg'ona tarixi asarida Jarir to'g'risida ma'lumotlar beruvchi fors tilida yozilgan „Mulhaqot Shoh Hurmiz“ asarlari aytib o'tiladi. Ibrat ma'lumotlariga qaraganda XIX asr birinchi yarmida Shoh Jarir faoliyatiga bag'ishlangan bir nazmiy asar Farg'onada juda keng tarqalgan edi. Ibrat bu haqida shunday fikrlarni bildiradi. Xolo biz yozib bu

<sup>3</sup> Valixo'jayev B O'zbek epik poeziyasi tarixidan . -T. : Fan, 1974. -150 b.

<sup>4</sup> O'zRFA Abu Rayon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limi. "Shoh Jarir qissasi". Inv. N 11619, 89 sahifa, qo'lyozma, shikasta xatida

tarixga avval Shoh Jarir tarixidan nazm ekan ani biz nasrda ifsho qilduk. Bu kitob Farg'onada qoyubdur. ..(13,282)

Tarixda ma'lum bir sohada ko'zga ko'ringan shaxslarni madh etuvchi ularning faoliyatini oliqshlovchi o'zlarini esa xalq qahramoni darajasiga olib chiquvchi asarlar avvalo ana shu qahramon yetishib chiqqan millat, ellat, urug' yoki qabila tomonidan yaratiladi. Bu qahramonlar ba'zan xalqning orzu-umidlarini amalga oshir uchun xizmat qilmasigi yoki bu asarlar xalqaro g'oyalarni ilgari surmasligi mumkin. Ammo ular ana shu urug'ning vakili sifatida o'zi mansub bo'lgan xalqning farzandi sifatida shu xalqni jahonga tanitadilar va tarixda qoldiradilar. Lekin ma'lum bir ma'noda xalq istaklarini ifodalamaydigan asarning o'zi ham bo'lmas kerak. Qissalar tarkibida har ikki jihatni o'zida namoyon qiladiganlarni uchratish mumkin. Yuqorida ko'rib o'tkanimiz „Imomlar qissasi“ da tomondan faqat bir necha shaxs hayoti bilan bog'liq voqealarnigina aks ettiruvchi asar sifatida ko'rinsa, ikkinchi tomondan chuqurroq qaralganda, ikki tomonda turib o'zaro kurash olib borgan xalqning o'rtasida bo'layotgan ziddiyatlarni ha aks ettiradi. Urug' va qabilalar o'rtasidagi ana shu kurash ikki, uch shaxs orasidagi urush janjallar va boshqa epizodlarga singdirib yuboriladi. <sup>5</sup>Bir xalqning aymoqlari o'rtasidagi jangovor harakatlar fojeona voqealar xayoti to'g'ri tushinuvchi va bu fojealarga xalqning fojeasi sifatida qarovchi insonlarni chuqur qayg'uga solgan. Shuning uchun bunday asarlarda qayg'uli ruhiyat, mungli kayfiyat doim baralla ko'rinin turadi. "Imomlar qissasida" ana shu kayfiyat kishida alizodalar fojeasi tufayli tug'iladi. Bunday asarlarda xalqning o'z ichida bo'layotgan voqea hodisalar tasvirlanar ekan fojeali qismatga yo'liqqan qahramonlar chuqur hurmat va qayg'u, ularni ana shunday ahvolga solgan vaxalq istaklarini kelib chiqmagan shaxslar obrazlari esa qahr g'azab bilan qalamga olinadi.

"Shoh Jarir" qissasi esa bu qissadan bazi bir xarakterli xususiyatlari bilan farq qiladi. Avvalo shuni aytish kerakki, "Imomlar qissasida" xalq manfaatlariga zid kurashlar tasvirlansa, "Shoh Jarir qissasi" da bu kurash va manfaat birlashganligini ko'rishimiz mumkin. "Imomlar qissasi" xalqning ikki toifadagi vakillari o'rtasida bo'layotgan urushlar qoralaydi. Ammo "Shoh Jarir" qissasiga xalq manfaati uchun olib borilaytgan kurash sifatida qaralib, Shoh Jarirni madh etish, ishlarni ulug'lash kayfiyatini ko'rish mumkin. Avvalgi asarda diniy kurash ikki qahramon o'rtasidagi kurash bilan yashagan rishtalar orqali bog'lanib ketganini ko'ramiz. Shoh Jarir qissasida bu kurash ochiq namoyon bo'ladi va butun asarning syujeti ana shu diniy kurashlarni tasvirlovchi voqealar asosida quriladi.

---

<sup>5</sup> O'zRFA Abu Rayon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limi "Imomlar qissasi". Inv. N 1007689, 228 sahifa, qo'lyozm, shikasta xatida.

Xolisning bu asarni yozishdan maqsadi nima, qissa qanaqa qissa bo'lgan, asoslari qayerda? Avvalo ana shu masalalargaoydinlik kiritish zarur.

Xolis asar debochasida keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, qissa turli xalqlar orasida juda mashhur asarlardan bo'lgan. Asar avvalo arab tilida ijod qilingan bo'lib, keyinchalik unga bo'lgan qiziqish tufayli Xo'jandiy degan hoir tomonidan forsiy tilga tarjima ham qilingan. Ammo turkiy tilda uning nusxalari bo'lmagan. Turkiy xalqning fors-tojik tilini biladigan qismigina bu asardan bahramand bo'lishgan. Xalq bu asarning turkiy tildagi nusxasini o'qishni juda orzu qilgan va shu sababli ijodkorlardan uni tarjima qilishni so'rashgan. Shuningdek asarda ayim o'rinlarda Jarir qissasi ko'p nusxada tarqalganligiga oshorotlar ham mavjud. Xalq orasida uning nazm va nasrdagi bir qancha nusxalari bo'lgan. Ular haqida Xolis quydagicha xabar beradi:

Risolaga kelib ko'nglum mani xush,  
O'qusam, turki xalqi erdi xomush.  
Dedilar:"Bu risola bo'lsa turki,  
Ani ortar edi bizlarga ko'rki."  
O'shal elni so'zini angladim man,  
Muni turkiy qilay deb o'yladim man.  
Arobiy ekan avval bu risola,  
Yozubdur Xo'jandiy forsiy xayola.  
Birov nazm qilubdurhm birov nasr,  
Ani xush ko'rmadi lekin bizi asr.  
Dedim, man bo'lmasa turki etoyin,  
Jahona nusxayo kuyib ketoyin...75,2) (99,2) (63,10)

Qissaning bosh qahrmoni shoh Jarir payg'ambarlardan biri sifatida tilga olinadi. Demak, qissa avvalo arab xalqlari (balki biror ijodkori) tomonidan yaratilgan va keyinchalik Islom dini turli xalqlar o'rtasida ulug' shuhrat kasb etgandan so'ng, bir tomondan din himoyachisi to'g'risidagi asar , ikkinchi tomondan esa payg'ambarlar haqidagi qissa sifatida boshqa xalqlar orasida ham mashhur bo'lgan, deyish mumkin. Nazarimizda qissa Xolisdan oldin ham turkiy tillarga bir necha bor tarjima qilingan va ular nasrda, shunchaki rivoyat uslubida o'girilgan bo'lib, unchalik diqqatga sazovor bo'lmagan. Shuning uchun asarning arab tili(balki fors tili) dagi asl nusxasi nazmiy qissa bo'lgan deb tahmin qilamiz. Shuningdek Xolis turkiyda yaratilgan bu qissani ko'rganligi , ammo u yaxshi yozilmaganligini qayd etadi. Qissani yangidan yaratishga bel bog'lab, uning "so'zidan o'zga so'z " (yangi azmundagi asar ) qilishga harakat qiladi. "Necha yeriga g'azal bog'lab" asarni yangi bir nusxada bunyod etishga kirishadi.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Abdullayev O'zbek adabiyoti tarixi . Ikkinchi kitob.-T.: O'qituvchi.1994. -383 b.
2. Valixo'jayev o'zbek adabiyotshunosligi tarixi. - T.: O'zbekiston,1993. -181 b.
3. Valixo'jayev B O'zbek epik poeziyasi tarixidan . -T. : Fan, 1974. -150 b.
4. Jo'rayev O.O'zbek klassik adabiyotida falsafiy- didaktik dostonchilik. -T.: Fan, 1985. 80b.
5. O'zRFA Abu Rayon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limi. "Shoh Jarir qissasi". Inv. N 11619, 89 sahifa , qo'lyozma, shikasta xatida
6. O'zRFA Abu Rayon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limi "Imomlar qissasi". Inv. N 1007689, 228 sahifa, qo'lyozm, shikasta xatida.
7. Eshmuhammedova M.,Devoni hikmat qo'lyozmalari, T.,ToshTDSHI,2003